

**NAQD PULSIZ HISOB KITOBLARNI INFLATSIYAGA TA'SIRI**

**Rafiqov Abror Baxtiyor o'g'li**

*University of Business and Sciense iqtisod yo'nalishi 3-kurs IQK-22-01*

*gurux talabasi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqola naqd pulsiz hisob kitoblarni inflatsiyaga ta'siri mavzusini yoritishga bag'ishlangan bo'lib, maqolada inflatsiyaning vujudga kelish asosiy sabablari va unga qarshi chora tadirlar ko'rish yo'llari yoritilgan. Shuningdek, naqd pulsiz hisob kitoblarning o'ziga xos xususiyatlari ko'rib chiqilgan.*

**Kalit so'zlar:** *tovar-pul munosabatlari, Chakana savdo, pul oboroti, tovar ayirboshlash, xizmat ko'rsatish, yalpi ijtimoiy mahsulot, Naqd Moliya, Raqamli hisob-kitob.*

**Аннотация:** Данная статья посвящена выяснению влияния безналичной бухгалтерской книги на инфляцию, в статье освещены основные причины инфляции и способы борьбы с ней. Также рассмотрены особенности безналичной бухгалтерской книги.

**Ключевые слова:** Товарно-денежные отношения, Розничная торговля, денежное обращение, товарный обмен, услуги, валовой общественный продукт, Денежные финансы, Цифровой расчет.

**Abstract:** *This article is devoted to elucidating the effect of cashless account books on inflation, the main causes of inflation and the ways to take measures against it are highlighted in the article. Also, the specific features of cashless account books were considered.*

**Keywords:** Commodity-monetary relations, Retail trade, money circulation, commodity exchange, services, gross social product, Cash Finance, Digital settlement.

### **Kirish**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xalq xo'jaligini rivojlantirishning eng muxim omillaridan biri - pul aylanishini to'g'ri va aniq tashkil qilishdan iborat, chunki bozor iqtisodiyoti tovar-pul munosabatlarining holati va taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liqdir. Korxona va tashkilotlar o'zlarining xo'jalik faoliyatlari jarayonida doimo bir-birlari bilan aloqada bo'ladilar. Ular o'rtasida tovar ayirboshlash jarayoni pul va pulli hisob-kitoblar yordamida amalga oshiriladi. Tovar ayirboshlashning o'zi esa pul aylanishining moddiy asosi bo'lib hisoblanadi, uning asosida boshqa pulli munosabatlar vujudga keladi. (soliq organlari, pensiya fondi, bank muassasalari va boshqalar). Pulli munosabatlarda pul shakllaridan foydalanish xususiyatlari va to'lov usullariga ko'ra pul aylanishi naqd pulli va naqd pulsiz pul aylanishiga bo'linadi.

Chakana savdo va aholiga pullik hizmat ko'rsatish asosan naqd pulda amalga oshiriladi. Bundan tashqari, naqd pulli aylanishga kommunal xizmatlar uchun to'lovlar, maishiy hizmatlar uchun to'lovlar, ishchi va xizmatchilarga ish xaqi va va unga tenglashtirilgan to'lovlarni to'lash, sug'urta tashkilotlariga badallar to'lash, uy-joy qurilishi va boshqa maqsadlar uchun olingan kreditlarni qaytarish va boshqa to'lovlar kiradi. Naqd pul aylanishi umumiy pul oborotining taxminan 10 foizini tashkil etadi.

Dastlab inflyatsiya atamasiga to'xtalib o'tamiz. Mazkur atamaga bir qancha ta'rif berish mumkin. Umuman olganda inflyatsiya bu pulning qadrsizlanishi hisoblanadi. Bu ta'rifning mazmun mohiyatini yanada chuqurroq ifodalash maqsadida iqtisodiyot fanlari nomzodi I.Sayfiddinovning so'zlarini keltirib o'tamiz: Inflyatsiya – bu, ijtimoiy ishlab chiqarish rivojlanishida yuzaga keluvchi disproporsiyalar sababli tovarlar va xizmatlar bahosining umumiy yoki to'xtovsiz o'sishi natijasida pul muomalasi qonunining buzilishi va pul birligining qadrsizlanishidi

Xalq xo'jaligida bo'ladigan pul aylanishining 80-90 foizini naqd pul ishlatmasdan, naqd pulsiz hisob-kitob shakllari asosida olib boriladi. Naqd pulsiz hisob-kitoblar deganda, korxona va tashkilotlarning tovar ayirboshlash, xizmat

ko'rsatish va tovarsiz operatsiyalar bo'yicha bir-biriga bo'lgan talab va majburiyatlarni naqd pul ishlatmasdan pul mablag'larini bir hisobvaraqdan ikkinchi hisobvaraqqqa o'tkazish orqali amalga oshirilishi tushuniladi[1]. Naqd pulsiz pul aylanishi yalpi ijtimoiy mahsulotni ishlab chiqarish jarayonida sodir bo'ladigan munosabatlarini o'zida aks ettirishiga ko'ra ikki qismga bo'linadi:

"Pulsiz hisob-kitoblar" atamasi umumiy hisob-kitoblar va moliyaviy hisob-kitoblar, ya'ni, naqd mablag'larning bo'limgan muomalalari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bu so'zning ibrat qilmoqchi bo'lgan nima edigini aniqlash uchun, "naqd moliya" yoki "pulsiz moliya" kabi ifodalar hamda moliyaviy tushunchalar bilan tanish bo'lishingiz muhim.

1. Naqd Moliya (Pulsiz Moliya): Bu atama umumiy hisob-kitoblar va moliyaviy hisob-kitoblar bilan bog'liq. Umumiy hisob-kitoblar, korporatsiyalarning umumiy moliyaviy holatini va faoliyatini hisobga olishga oid bo'lgan tizimdir. Moliyaviy hisob-kitoblar esa korporatsiyalar tomonidan amalga oshirilayotgan ma'lum bir moliyaviy operatsiyalarni boshqarish va yuritishga oid bo'lgan tizimdir.

2. Hisob-kitoblar va Rasmiylashtirish: Moliyaviy hisob-kitoblar, bir korporatsiyaning moliyaviy holatini tushuntirish va aniqlashga yordam beradi. Rasmiylashtirish esa shu hisob-kitoblarning qonuniy bo'lishini ta'minlash, hisob-kitoblarning to'g'ri va barqaror bo'lishini amalga oshirishni ma'qullash uchun qonunlar va qoidalar bilan ta'minlashni o'z ichiga oladi.

Korporatsiyalar moliyaviy hisob-kitoblarni olib borish va rasmiylashtirish jarayonlarini amalga oshirishlari kerak bo'lgan paytda, ularga qonunlar va davlat organlarining so'rovlari bo'yicha javob bera olishadi. Shuningdek, moliyaviy hisob-kitoblarni rasmiylashtirish, moliyaviy hisob-kitoblarni davlat tomonidan tan olish va tekshirishga imkon beradi. Raqamli hisob-kitoblarni hamda dastlabki holatda, blokcheyn texnologiyalarini ham ishlatishlar mumkin[2].

Moliyaviy hisob-kitoblarni olib borish va rasmiylashtirish har bir korporatsiya uchun muhimdir, chunki bu jarayonlar moliyaviy transparensiyani ta'minlash, hisob-kitoblarni nazorat qilish, davlat statistikasi va hisob-kitob tizimlari orasida isloq qilish, moliyaviy hisob-kitoblarni qog'oz shaklidan raqamli formatga o'tkazish va boshqa muhim maqsadlarni amalga oshirishga yordam beradi.

1. Tovar operatsiyalari bo'yicha pul aylanishi.
2. Moliyaviy majburiyatlar bo'yicha pul aylanishi.

Birinchi guruhga tovarlarni sotish, xizmatlar ko'rsatish va kapital qurilish jarayonidagi hisob-kitoblarni aks ettiruvchi pul aylanishi kiradi. Ikkinci, moliyaviy majburiyatlar, guruhiga esa byudjetga to'lovlar, ya'ni foydadan to'lanadigan soliq, qo'shilgan qiymat solig'i va boshqa majburiy to'lovlar hamda byudjetdan tashqari fondlar, bank ssudalarini qaytarilishi, kredit uchun foizlarning to'lanishi, sug'urta kompaniyalari bilan hisob-kitoblar kiradi.

Naqd pulsiz aylanish pulli munosabatlar ishtirokchilarining joylashuviga qarab bir shahar ichidagi va shaharlарaro pul aylanishiga bo'linadi. Bir shahar ichidagi pul aylanishi bir hisob markaziga qarashli banklar o'rtasidagi hisob-kitoblar majmuini bildiradi. Shaharlарaro pul aylanishi esa turli hisob markazlariga qarashli banklar o'rtasida amalga oshiriladigan hisob-kitoblar yig'indisidir. Lekin respublikamizda bank tizimining rivojlanishi, «elektron to'lovlar» tizimiga o'tish asosida hisob-kitoblarning tezligi va sifatining oshishi natijasida hisob-kitoblarda ishtiroq etuvchi sub'ektlarning joylashuviga karab ikkiga bo'lish maqsadga muvofiq bo'lmay qoldi. Chunki hisob-kitoblarda katnashuvchi sub'ektlar qaysi hududda joylashganidan qat'iy nazar, to'lovlar bir necha soatda, xattoki bir necha daqiqada o'tkaziladi.

Yangi tahrirdagi Nizomga aynan qanday o'zgartirishlar kiritilishi kutilayotgani haqida ilgari yozgan edik (sharhga qarang). «To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida»gi Qonun va yangi tahrirdagi Soliq kodeksi kuchga kirgani munosabati bilan tegishli tuzatishlar kiritish zarurati yuzaga keldi. Nizomning ayrim normalari chiqarib tashlandi (tijorat bankining hisob-kitob cheklari va bank

plastik kartalari orqali hisob-kitob qilish to‘g‘risidagi boblar), ayrimlari esa to‘ldirildi. Chunonchi, yangilangan versiya hujjatda foydalaniladigan bir qator asosiy tushunchalar bilan to‘ldirildi. «Operatsiya kuni», «valyutalash sanasi», «1-son kartoteka», «2-son kartoteka», «masofaviy xizmat ko‘rsatish tizimi», «elektron to‘lov vositalari» va boshqalar singari tushunchalarga ta’rif berildi.

Inkasso topshiriqnomalari bilan hisob-kitob qilish tartibiga tuzatish kiritildi. Ular mablag‘larni to‘lovchi yoki oluvchining bankiga yozma yoki elektron shaklda taqdim etiladi. «Qog‘ozdagি» topshiriqnomalar uch nusxada beriladi. Ularning ikkitasi ijro uchun bankda qoldiriladi, uchinchisi esa qabul qilish sanasi ko‘rsatilgan holda bankning mas‘ul xodimi tomonidan imzolanadi va unga biriktirilgan shtamp bilan tasdiqlanib, mablag‘larni oluvchiga qaytarib beriladi[3]. Mablag‘larni oluvchining bankiga inkasso topshiriqnomasi taqdim etilganda ikkita nusxasi tegishli jurnalda qayd etilgan holda pochta xizmati orqali mablag‘larni to‘lovchining bankiga yuboriladi.

ERI bilan tasdiqlangan elektron shakldagi inkasso topshiriqnomalari to‘lov tizimi orqali mablag‘larni to‘lovchining bankiga ijro uchun yuboriladi.

Inflyatsiyaga qarshi siyosat munosabati bilan inflyatsiyaga qarshi kurashning xarajatlari masalasi keskin bo`lib turadi. Jamiyat manfaatlari nuqtai nazaridan olganda inflyatsiyaga qarshi kurash. Xalq xo`jaligida kattagina zarar ko`rishga, ya`ni ishsizlikning o`sishi va ishlab chiqarishning pasayishiga olib kelishi mumkin. Ayrim hisob-kitoblarga ko`ra, inflyatsiyani 1 foiz kamaytirish uchun ishsizlik yil davomida o`zining tabiiy darajasidan 2 foiz yuqori bo`lishi kerak, bunda real YaMM potentsial YaMM ga qaraganda 4 foiz kamayadi. Ko`pgina mamlakatlarning xukumatlari nazoratdan chiqib ketgan inflyatsiyani jilovlashga harakat qilib, narxlar va daromadlar siyosati deb atalgan siyosatni amalga oshirdilarki, uning asosiy vazifasi ish haqi o`sishini cheklashdan iborat bo`ladi. Bundan tashqari inflyatsiyani jilovlashning yana bir usullaridan biri —Inflyatsion targetlash usuliga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak: Hozirgi kunda inflyatsion targetlash pul-kredit siyosatini olib borishning eng ommabop

usullaridan biri bo'lib, ushbu usul jahondagi 40 dan ortiq mamlakatlarda qo'llanilmoqda. "Target" so'zi ingliz tilidan olingan bo'lib, "maqsad" degan ma'noni anglatadi. Inflyatsion targetlash rejimida inflyatsiyaning maqsadli ko'rsatkichi (target) o'rnatiladi. Inflyatsiyaning maqsadli ko'rsatkichi (targeti)ga erishish uchun pul-kredit siyosati mexanizmlari bosqichma-bosqich ushbu rejimga o'tkazilib, inflyatsiyani pasaytirishda samarali instrument sifatida foydalaniladi. O'z navbatida, ushbu rejimning qo'llanilishi narxlar barqarorligini ta'minlash orqali o'rta muddatli istiqbolda mustahkam va barqaror iqtisodiy o'sish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishi mumkin[4]. Shu bilan birga, Markaziy bank inflyatsiya darajasining eng mos maqsad (target)ini aniqlab olib, unga pul-kredit siyosati instrumentlarini qo'llash, iqtisodiy rivojlanishni muntazam tahlil qilish va pul-kredit siyosati rejalarini keng yoritish orqali erishadi. Bu rejim o'zining qabul qilingan standartlari va tartiblariga ega. Masalan, makroiqtisodiy tahlil va prognozlashtirish tizimidan keng foydalangan holda qaror qabul qilish, suzuvchi valyuta kursidan foydalanish, kommunikatsiyaviy siyosat tamoyillari, valyuta intervensiysi strategiyasi va boshqalar.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, inflyatsiya mamlakat taraqqiyotining eng muhim ko'rsatkichlaridan biridir — u qancha past bo'lsa, shuncha yaxshi. Masalan, Shveysariya kabi rivojlangan mamlakatlarda yillik inflyatsiya darjasи 1,5 foizdan oshmaydi, Venesuela kabi inqirozga botgan davlatlarda esa 500 foizdan oshib ketgan. O'zbekiston 2021-yil boshidan inflyatsion targetlash tizimiga o'tdi. Bu tizimda Markaziy bank inflyatsiya bo'yicha maqsad (target) qo'yadi va unga erishish uchun barcha imkoniyatlar ishga solinadi. 2021-yil uchun mo'ljallangan maqsad o'n foiz bo'lgan bo'lsa, 2023-yilga kelib, bu ko'rsatkichni besh foizga yetkazish rejalashtirilgan. Ma'lumot uchun, besh foizli inflyatsiya bu Kanada va Buyuk Britaniya kabi davlatlar darajasiga teng ko'rsatkichdir. Targetlash doirasida narx barqarorligi moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi, chunki mamlakatdagi ahvol hamma uchun oydinlashadi va oldindan aytish mumkin bo'ladi. Masalan, investorlar, tadbirkorlar va boshqalar qaror qabul qilishga izchilroq yondashadi. Bu, o'z navbatida, butun moliya tizimining

barqarorlashuviga olib keladi hamda Markaziy bank ishtiroki darajasini pasaytiradi. Inflyatsiya darajasining pastligi narx-navo barqarorligini bildiradi, bu esa, o'z navbatida, aholining turmush darajasiga ham, uning mehnat faoliyatiga ham ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Bu omillar oxir oqibat aholining milliy valyutaga bo'lgan ishonchini oshirishi, iqtisodiyotdagi dollarlashuv darajasini pasaytirishi, ichki va tashqi investitsiya hajmining oshishiga olib kelishi ko'zda tutilgan.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. [O'zbekistonda naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi belgilandi \(nbu.uz\)](#)
2. [Накд пулсиз хисоб-китоб қилиш тартиби янгиланди | NORMA.UZ](#)
3. [https://www.norma.uz/qonunchilikda\\_yangi/naqd\\_pulsiz\\_hisob-kitob\\_qilish\\_tartibi\\_yangilandı?ysclid=lwotly4t1c307874197](https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi/naqd_pulsiz_hisob-kitob_qilish_tartibi_yangilandı?ysclid=lwotly4t1c307874197)
4. G“iyosiddin Abdullayevich Safarov, Zokirjon Olimjon o“g“li Bahodirov. INFLYATSIYANING MAMLAKAT IQTISODIY XAVFSIZLIGIGA TA“SIRI VA UNI BARTARAF ETISH CHORA-TADBIRLARI. Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 12 | 2022